



IQTISODIY TERMINOLOGIYANING O‘ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA UNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini mudiri,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

dilyuldasheva83@gmail.com

0000-0002-3898-2113 ORCID

Xasanova Mexriniso Shuxratovna

“Iqtisodiyot” fakulteti 1-kurs talabasi,

Samarqandi iqtisodiyot va servis instituti

mehriniso222@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida iqtisodiy terminologiyaning shakllanish jarayoni va uning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida yangi tushunchalar paydo bo‘lib, ular tilimizda yangi terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Maqolada iqtisodiy terminlarning kelib chiqishi, ularning tuzilishi, qo‘llanilishi va ayrim muammolari oddiy va tushunarli tilda yoritiladi. Shuningdek, terminologiyaning til rivojidadagi o‘rni va ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: iqtisodiy terminologiya, o‘zbek tili, lingvistik xususiyatlar, terminlar, leksika, o‘zlashma so‘zlar, tarjima, iqtisodiyot, til rivoji, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования экономической терминологии в узбекском языке и её лингвистические особенности. В последние годы в результате развития экономических процессов появляются новые понятия, что приводит к возникновению новых терминов в языке. В статье простым языком анализируются происхождение



экономических терминов, их структура, особенности употребления и некоторые проблемы. Также рассматривается роль терминологии в развитии языка.

Ключевые слова: экономическая терминология, узбекский язык, лингвистические особенности, термины, лексика, заимствованные слова, перевод, экономика, развитие языка, инновации

Abstract: This article examines the process of formation of economic terminology in the Uzbek language and its linguistic features. In recent years, due to the development of economic processes, new concepts have emerged, leading to the appearance of new terms in the language. The article discusses the origin of economic terms, their structure, usage features, and certain related issues in a simple way. It also highlights the role of terminology in language development.

Keywords: economic terminology, Uzbek language, linguistic features, terms, lexicon, loanwords, translation, economy, language development, innovation.

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jadallashuvi hamda bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida iqtisodiy bilim va tushunchalarning aniq, tizimli hamda milliy til asosida ifodalanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda iqtisodiy islohotlarning keng ko‘lamda amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotga oid yangi tushunchalar, kategoriyalar va terminlarning kirib kelishi til tizimida ham muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy terminologiyaning o‘zbek tilida shakllanishi, rivojlanishi va tartibga solinishi masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirdi. Iqtisodiy terminologiya — bu iqtisodiyot sohasiga oid ilmiy, amaliy va kasbiy tushunchalarni ifodalovchi maxsus leksik qatlam bo‘lib, u nafaqat tilshunoslik, balki iqtisodiyot fanining ham uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu terminlar tizimi tilning ichki qonuniyatlari asosida shakllanishi bilan birga, tashqi omillar — ya’ni



xorijiy tillardan o‘zlashuv, tarjima jarayonlari va xalqaro standartlarning ta’siri ostida ham rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi, ularning semantik aniqligi, morfologik tuzilishi va funksional qo‘llanilishi kabi jihatlarni o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda iqtisodiy terminologiyada uchrayotgan muammolar — terminlarning bir xil ma’noda turlicha ifodalanishi, ortiqcha o‘zlashmalar, tarjimada noaniqliklar hamda terminlarning standartlashmaganligi — ushbu sohada chuqur lingvistik tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ilmiy adabiyotlar, o‘quv qo‘llanmalar va normativ-huquqiy hujjatlarda terminlarning yagona tizim asosida qo‘llanilishi zarurati yanada ortib bormoqda.

Asosiy qism. Iqtisodiy terminologiyaning o‘zbek tilida shakllanishi murakkab, ko‘p bosqichli va tarixiy jarayon bo‘lib, u tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’siri ostida yuzaga kelgan. Xususan, o‘zbek iqtisodiy terminologiyasining rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda uch davrga ajratish mumkin: an’anaviy (mustamlakachilikdan oldingi), sovet davri va mustaqillikdan keyingi davr. An’anaviy davrda iqtisodiy tushunchalar asosan savdo-sotiq, hunarmandchilik va dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lib, ular ko‘proq arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar orqali ifodalangan (masalan, “savdo”, “hisob”, “daromad”). Sovet davrida esa iqtisodiy terminologiya markazlashgan reja iqtisodiyoti asosida shakllanib, rus tili orqali kirib kelgan terminlar ustunlik qildi (“balans”, “plan”, “norma”, “fond”). Mustaqillikdan keyingi davrda esa bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq holda yangi iqtisodiy tushunchalar paydo bo‘ldi va ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita o‘zlashmalar keskin ortdi (“marketing”, “menedjment”, “investitsiya”, “outsorsing”), bu esa terminologik tizimning yangilanishiga olib keldi. Iqtisodiy terminlarning lingvistik xususiyatlari, avvalo, ularning leksik-semantik aniqligi bilan belgilanadi. Terminlar umumxalq tilidagi so‘zlardan farqli ravishda bir ma’nolilikka (monosemiya) intiladi va aniq tushunchani ifodalashi lozim. Ammo



amaliyotda ko‘p hollarda bir tushunchaning turli variantlarda qo‘llanishi kuzatiladi, masalan, “daromad” va “foйда”, “kapital qo‘yilma” va “investitsiya” kabi terminlar ayrim kontekstlarda sinonimik tarzda ishlatiladi, bu esa ilmiy aniqlikka putur yetkazadi. Shu bois terminlarning semantik chegaralarini aniq belgilash, ularni normativlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari, iqtisodiy terminlar ko‘pincha metaforik asosda ham shakllanadi (“moliyaviy oqim”, “bozor segmenti”), bu esa ularning semantik kengayishiga olib keladi, biroq haddan tashqari metaforiklashuv terminologik aniqlikni pasaytirishi mumkin.

Morfologik jihatdan o‘zbek iqtisodiy terminologiyasi sodda, yasama va qo‘shma birliklardan tashkil topadi. Sodda terminlarga “narx”, “soliq”, “bozor” kabi birliklar kirsa, yasama terminlar affiksatsiya orqali hosil qilinadi (“soliqchi”, “hisobchi”, “ishlab chiqarish”), qo‘shma terminlar esa ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi (“asosiy vositalar”, “aylanma mablag‘lar”, “tashqi savdo balansi”). O‘zlashma terminlar esa ko‘pincha fonetik va morfologik moslashuvga uchraydi: “investitsiya”, “diversifikatsiya”, “inflyatsiya” kabi so‘zlar o‘zbek tilining fonetik tizimiga moslashtirilgan. Shu bilan birga, ayrim hollarda terminlarning asl shakli saqlanib qolmoqda (“leasing”, “franchayzing”), bu esa ularning yozilishi va talaffuzida turlicha variantlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Sintaktik jihatdan iqtisodiy terminlar ko‘pincha so‘z birikmalari shaklida namoyon bo‘ladi va aniqlovchi-aniqlanmish munosabatiga asoslanadi (“yalpi ichki mahsulot”, “sof foyda”, “xalqaro savdo tizimi”). Bunday ko‘p komponentli terminlar murakkab tushunchalarni ifodalashda qulaylik yaratadi, ammo ularning qisqartirilgan shakllari (masalan, YIM) ham keng qo‘llanilishi natijasida terminologik tizimda parallel birliklar yuzaga keladi. Bu esa ilmiy matnlarda aniqlik va izchillikni ta‘minlash zaruratini kuchaytiradi. Terminlarning qisqartma shakllari ko‘proq rasmiy-hujjat uslubida qo‘llanilsa, to‘liq shakllari ilmiy va o‘quv adabiyotlarida ustunlik qiladi.



Iqtisodiy terminologiyaning shakllanishida o‘zlashmalar alohida o‘rin tutadi. Hozirgi davrda ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar global iqtisodiy tizim bilan integratsiya jarayonining natijasi hisoblanadi. Biroq ularni o‘zbek tiliga moslashtirishda ikki xil yondashuv kuzatiladi: birinchisi — termini asliga yaqin shaklda qabul qilish (“marketing”), ikkinchisi — unga milliy muqobil yaratish (“bozor tadqiqoti”). Har ikki yondashuvning afzallik va kamchiliklari mavjud bo‘lib, birinchisi xalqaro moslikni ta’minlasa, ikkinchisi milliy tilning boyishiga xizmat qiladi. Shu bois optimal variant sifatida terminlarning ilmiy asoslangan tarjimasini va standartlashuvi muhim hisoblanadi. Zamonaviy bosqichda iqtisodiy terminologiyani tartibga solish, uni yagona tizimga keltirish va normativ hujjatlar asosida mustahkamlash dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada terminologik lug‘atlar yaratish, ilmiy izohlar berish, o‘quv adabiyotlarini yagona standart asosida ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, iqtisodiy terminlarning ommaviy axborot vositalari va kundalik nutqda to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlash orqali ularning funksional samaradorligini oshirish mumkin. Natijada iqtisodiy terminologiya nafaqat ilmiy muhitda, balki keng jamoatchilik orasida ham tushunarli va barqaror tizim sifatida shakllanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy terminologiyaning o‘zbek tilida shakllanishi uzluksiz tarixiy jarayon bo‘lib, u jamiyatning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari bilan bevosita bog‘liq holda takomillashib bormoqda. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda bozor iqtisodiyotiga o‘tish, xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi va global integratsiya jarayonlari natijasida iqtisodiy terminlar tizimi sezilarli darajada boyidi va yangilandi. Shu bilan birga, terminologik tizimda muayyan muammolar — sinonimiklik, ortiqcha o‘zlashmalar, tarjima noaniqliklari va standartlashuvning yetarli darajada emasligi — mavjudligi ham aniqlandi. Bu esa iqtisodiy terminlarning lingvistik jihatdan chuqur o‘rganilishini va ilmiy asosda tartibga solinishini zarur etadi.



Tahlillar natijasida iqtisodiy terminlarning leksik-semantik aniqligi, morfologik moslashuvi va sintaktik barqarorligi ularning samarali qo‘llanishida muhim omil ekanligi isbotlandi. Shuningdek, terminlarning milliy til me‘yorlariga mos holda shakllanishi bilan bir qatorda, xalqaro terminologik tizim bilan uyg‘unligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, iqtisodiy terminologiyani rivojlantirishda milliylik va xalqaro standartlar o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, iqtisodiy terminologiyani tizimlashtirish va normativlashtirish maqsadida zamonaviy, ilmiy asoslangan izohli terminologik lug‘atlar yaratish zarur; ikkinchidan, xorijiy tillardan kirib kelayotgan iqtisodiy terminlarni o‘zbek tiliga moslashtirishda yagona metodologik yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim; uchinchidan, iqtisodiy terminlarning o‘quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlarda bir xil shaklda qo‘llanilishini ta‘minlash uchun standartlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish kerak; to‘rtinchidan, iqtisodiy terminologiya bo‘yicha lingvistik va tarmoqlararo tadqiqotlarni kengaytirish, ayniqsa, yosh tadqiqotchilarni ushbu yo‘nalishga jalb etish muhim; beshinchidan, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda iqtisodiy terminlarning to‘g‘ri va izchil qo‘llanilishini nazorat qilish orqali ularning keng jamoatchilik orasida to‘g‘ri shakllanishiga erishish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Yuldasheva, D. (2022). FORMATION OF ECONOMIC TERMINOLOGY-THE CURRENT STAGE OF DEVELOPMENT OF THE TERMINOLOGY OF THE UZBEK LANGUAGE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).



2. Yuldasheva, D., & Karshieva, M. (2022, January). PERTINET TO THE ROLE OF SCIENTIST WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF THE SUBJECT UZBEK LINGUISTICS. In Archive of Conferences (pp. 61-62).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy rivojlanishga oid farmon va qarorlari (2020–2025).

4. “Iqtisodiyot nazariyasi” darslik. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

5. “O‘zbek tili va nutq madaniyati” darslik. Toshkent, 2021.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021–2023.

7. Bekmurodovna, Y. D., & Bakhodirovich, E. D. (2023). PROBLEMS IN THE ERA OF GLOBALIZATION AND INNOVATIVE SOLUTIONS TO THEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 329-331.

8. Terminologiya va tilshunoslik bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami (2020–2025).

9. Юлдашева Д.Б. Лингвистика: история, основные понятия и последние развития/ Университет общественной безопасности республики Узбекистан /Сборник материалов/ II международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы методики преподавания русского языка», 4 марта 2024 г./ 387-390.